



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Ergashev Jahongir Sheraliyevich
Bojxona instituti "Maxsus-huquqiy"
kafedrasida o'qituvchisi

Mavlonberdiyev Asadbek Murodjon o'g'li
Bojxona instituti kursanti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.18439608>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-yanvar 2026 yil
Ma'qullandi: 28-yanvar 2026 yil
Nashr qilindi: 31-yanvar 2026 yil

KEYWORDS

O'zbekiston Respublikasi
Konstitutsiyasining o'ziga xos
xususiyatlari, Yangi
O'zbekistonning taraqqiyot
strategiyasi, konstitutsiyaviy
qonuni loyihasi.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining qabul qilinishi, uning mazmun-mohiyati, unda kiritilgan yangi normalar va ularga doir bir qancha tushuntirishlar hamda konstitutsiyamizning o'ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan.

"Biz Asosiy qonunimizda millati, tili va dinidan qat'i nazar, barcha fuqarolarning tengligi, inson huquqlari, so'z va vijdon erkinligi prinsiplariga sadoqatimizni yana bir bor tasdiqladik." degan edi Muxtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev 2023-yil 19-sentyabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida so'zlagan nutqlarida¹.

Mustaqillik yillarida erishilgan barcha yutuq va marralarimizning mustahkam huquqiy poydevori – bu O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasidir. O'tgan davr mobaynida Konstitutsiyamizda muhrlab qo'yilgan huquqiy demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyatini qurish g'oyasiga sodiq qolib, shu yo'lda keng ko'lamli ulkan ishlarni amalga oshirildi, katta bilim va tajriba ortirdildi va Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha keng ko'lamli islohatlar boshlandi.

Shu maqsadda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni qabul qilindi².

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida o'z aksini topayotgan, adolatli va xalqparvar davlat barpo etishda muhim kasb etadigan vazifalarni amalga oshirish uchun, avvalo, yangi konstitutsiyaviy makon va mustahkam qonunchilik bazasi zarurdir. Shu ma'noda,

¹ O'zbekiston Prezidenti BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida so'zlagan nutqi <https://president.uz/oz/lists/view/6679>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022-yildagi PF-60-son <https://lex.uz/docs/5841063>

Asosiy Qonunimizni jamiyatdagi o'zgarayotgan voqelikka, shiddatli islohatlarga moslashtirish, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi uchun mustahkam huquqiy poydevor yaratish birinchi o'rinda amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifalardan biridir.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev Konstitutsiyaning 29 yilligiga bag'ishlangan bayram tabrigida "Darhaqiqat, bugungi shiddatli davr bizdan zamonga mos harakat va o'zgarishlarni talab etmoqda. Ana shunday talabga javob beradigan mukammal Konstitutsiyaga ega bo'lish uchun Asosiy Qonunimizning yangi loyihasini tayyorlashimiz, uni umumxalq muhokamasiga qo'yib, bildirilgan takliflar asosida takomillashtirish, ushbu muhim siyosiy hujjatni qabul qilish, o'ylaymanki, xalqimiz manfaatlariga munosib ish bo'ladi" deb ta'kidlab o'tgan edilar.

2022-yil 20-may kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi va Qonunchilik palatasi Kengashining qo'shma majlisi bo'lib o'tdi. Qo'shma majlisda mamlakatimizda konstitutsiyaviy islohotlarni amalga oshirishga oid choralarni ko'rish masalalari muhokama qilindi. Yig'ilishda Konstitutsiyaga o'zgartirishlar kiritish bo'yicha takliflarni shakllantirish va tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan Konstitutsiyaviy komissiya tuzildi. Konstitutsiyaviy komissiya tomonidan tayyorlangan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni loyihasining matni 2022-yil 25-iyundan 1-avgustga qadar umumxalq muhokamasidan o'tkazildi³.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining 2023-yil 10-martdagi qarori bilan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni loyihasining nomi "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida" deb o'zgartirilgan⁴.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalarning hajmi va ko'lami, hususan, uning moddalari 128 tadan 155 taga ko'payotganligi, amaldagi 128 ta moddadan 91 tasiga konseptual o'zgarishlar kiritilayotganligini inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni loyihasining nomi o'zgartirilib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini yangi tahrirda bayon etish to'g'risida qaror chiqargan.

2023-yil 15-mart kuni "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonunining loyihasi ommaviy axborot vositalarida e'lon qilindi. Unga ko'ra Konstitutsiya loyihasi 6 ta bo'lim, 27 ta bob, 155 ta moddadan iborat.

Shu yilning 1-may kuni 11 ta moddadan iborat O'RQ-837 sonli "O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinib shu kundan e'tiboran yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilindi.⁵

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini chuqurroq anglab yetish uchun, uning o'ziga xos hususiyatlariga e'tibor berish lozim. Ya'ni o'ziga xos hususiyatlariga qarab, uning oldingi Konstitutsiyalardan farqlari va afzalliklari nimalardan iborat ekanligini anglaymiz.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy o'ziga xos hususiyatlari:

³ Sh.Mirziyoyev Konstitutsiyaning 29 yilligiga bag'ishlangan bayram tabrigi <https://gujum.uz/ozbekiston/ozbekiston-xalqiga-bayram-tabrigi-3?imlo=1>

⁴ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining qo'shma qarori, 20.05.2022-yildagi 2123-IV-son <https://lex.uz/ru/docs/6063569>

1. **O'zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat deb belgilanganligidir.** (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasi)
2. **Milliy urf-odatlar va an'analar e'tiborga olinganligi.** (127-modda mahallaga konstitutsiyaviy maqom berildi, 14-bob ya'ni oila, bolalar va yoshlarga alohida bob ajratildi, 80-modda voyaga yetgan mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar)
3. **O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tuzilishi.** (Konstitutsiyaning tuzilishiga e'tibor bersak birinchi o'rinda inson, uning huquq va erkinliklari, keyin jamiyat undan keyin davlat turadi. Sizlarga ma'lumki avvalgi konstitutsiyalarda birinchi o'rinda Davlat va uning manfaatlari, keyin jamiyat, undan keyin shaxs turar edi.)
4. **O'qituvchilarning davlat himoyasida ekanligi alohida qayd etilganligi.** (52-modda davlat o'qituvchilarning sha'ni va qadr qimmatini himoya qiladi va ular haqida g'amxo'rlik qiladi. Ma'lumki tariximizda o'qituvchilar maqomi bosh qonunda keltirilmagan)⁵
5. **Ijtimoiy hayot — siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanishining belgilanganligidir**⁶. (Shunga asosan hozirgi vaqtda Respublikamizda beshta siyosiy partiya ya'ni 1. Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi, 2. O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi, 3. O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi, 4. O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi, 5. O'zbekiston ekologik partiyasi faoliyat ko'rsatmoqda. Sizlarga ma'lumki sobiq sovet ittifoqi davrida kommunistik partiya hukumron edi)
6. **Hokimiyat bo'linishi prinsipini mustahkamlanganligi.** (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 11-moddasiga asosan Hokimiyat — qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linadi.)
7. **O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosi taqiqlanadi deb belgilanganligi.** (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 25-moddasi)
8. **Miranda qoidalariga asosan normalar kiritilganligi.** (Shaxsni ushlab chog'ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi shart. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 27-moddasi. Agar shaxsning o'z aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo'lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emas. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 28-moddasi)
9. **Millatchilikka urg'u berilmaganligidadir.** (8-modda O'zbekiston xalqini, millatidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi; 19-modda O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar; 106-modda xatto davlat boshlig'i Prezidentlik lavozimiga ham 35 yoshdan

⁵ O'zbekiston Respublikasining O'RQ-837 sonli "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi qonuni <https://lex.uz/docs/-6449033>

kichik bo'lmagan, davlat tilini yaxshi biladigan, bevosita saylovgacha kamida 10 yil O'zbekiston hududida muqim yashayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi saylanishi mumkin)

10. **Prezidentlik lavozimining ta'sis etilganligidir.** (105-modda O'zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat boshlig'idir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta'minlaydi)

11. **Ba'zi lavozimlarning ikki muddatdan ortiq bir lavozimni egallay olmasligi belgilandi.** (100-modda Qonunchilik palatasi Spikeri,101-moddaga ko'ra Senat Raisi,120-moddaga ko'ra ayni bir viloyat,tuman,shahar kengashi raislari, 129-moddaga ko'ra Markaziy saylov komissiyasi raisi,134-moddaga ko'ra Oliy sud raisi,oliy sud raisi o'rinbosarlari,135-moddaga ko'ra Sudyalari oliy kengashi raisi,raisi o'rinbosarlari,144-moddaga ko'ra esa Bosh prokuror surunkasiga 2 muddatdan ortiq ushbu lavozimlarga saylanishi mumkin emasligi haqida norma kiritildi.

12. **Advokaturaga alohida bob ajratilganligidir.** (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 24-bobi.141,142-moddalar) unga ko'ra Advokat o'z kasbiy vazifalarini amalga oshirayotganda uning faoliyatiga aralashishga yo'l qo'yilmaydi.

Advokatga o'z himoyasidagi shaxs bilan moneliksiz va xoli uchrashish, maslahatlar berish uchun shart-sharoitlar ta'minlanadi.

Advokat, uning sha'ni, qadr-qimmatini va kasbiy faoliyati davlat himoyasida bo'ladi va qonun bilan muhofaza qilinadi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya davlatimiz rahbari tomonidan 2023-yilning 11-sentyabrida imzolangan "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida"gi farmon hamda "O'zbekiston - 2030" strategiyasini 2023-yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorga tayanch vosita bo'lib xizmat qildi deyish mumkin. Zero, farmon muqaddimasida "yangilangan konstitutsiyaviy-huquqiy sharoitlarda mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy yo'nalishlarini takomillashtirish va amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish talab etilmoqda", deb alohida ta'kidlangani bejiz emas. Natijada yurtdoshlarimizning yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha xohish-irodasini ro'yobga chiqarish, sog'lom, bilimli va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta'minlash ustuvor maqsad sifatida belgilangani qayd etildi.

Shunday ekan Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek Faqat Konstitutsiya va qonunlarimizga chuqur hurmat, puxta huquqiy bilim va amaliy tajriba asosidagina biz davlat va jamiyat boshqaruvida faol ishtirok etib, Vatan va xalq oldidagi farzandlik burchimizni sharaf bilan ado eta olamiz. Shundagina Bosh qomusimizning hayotbaxsh kuchi, bunyodkorlik salohiyati amalda yanada yorqin namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 30.04.2023 <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. O'zbekiston Respublikasining O'RQ-837 sonli "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi qonuni <https://lex.uz/docs/-6449033>
3. O'zbekiston Prezidenti BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida so'zlagan nutqi
4. <https://president.uz/oz/lists/view/6679>
- 5.
6. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining qo'shma qarori,

7. 20.05.2022-yildagi 2123-IV-son <https://lex.uz/ru/docs/6063569>
8. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining qarori, 13.03.2023-yildagi KSQ-4-son <https://lex.uz/ru/docs/6405731>
9. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi sudyasi, yuridik fanlar nomzodi Abdumannob Rahimovning maqolasi Konstitutsiyaviy sudning tarixiy qarori yoki O'zbekiston - ijtimoiy davlat barpo etish yo'lida maqola <http://www.konstsud.uz/uz/news/2023/03/29>
10. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi <https://lex.uz/docs/-6445145>
11. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikerining birinchi o'rinbosari, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi direktori Akmal Saidovning "Inson sha'ni, qadr-qimmat, huquqlarining mustahkam kafolatlari" nomli maqolasi Xalq so'zi gazetasi 250 son 24.11.2023-yil
12. "O'zbekiston - 2030" strategiyasi: maqsad va vazifalar" Erkinjon Mahmudov, Qo'qon shahar adliya bo'limi boshlig'i. https://gov.uz/oz/pages/2030_strategy

